**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ 119
2025 -yil “ 29 ” 04

**“TASDIQLAYMAN”**
O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor
__________ Dj. Sultanov
2025 -yil “ 29 ” 04

# MAKROIQTISODIYOT 1.2

# FANINING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400 000- | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410 000- | Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60410100- | Iqtisodiyot |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi<br>MAKIQ14510 | | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>4/5 | Kreditlar<br>5/5 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>majburiy | | **Ta'lim tili**<br>o'zbek/rus/ingliz | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Makroiqtisodiyot | **4-semestr 60/<br>5-semestr 60** | | **4-semestr 90/<br>5-semestr 90** | **4-semestr150/<br>5-semestr 150** |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi.** Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi.

**Fanning vazifasi.** Talabalarga milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi o'rgatishdan iborat.

**II.Asosiy nazariy qism.(Ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I Fan tarkibiga quydagi mavzular kiradi:**

**4-Semestr**

**1-Mavzu. Makroiqtisodiy ta'riflar: YaIM, YaMM**

Ochiq iqtisodiyot sharoitida milliy daromad, xarajatlar, daromad va xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, to'lov balansining muvozanatlashuvi. Milliy hisoblar tizimi, to'lov balansining asosiy komponentlari, joriy hisob, kapital hisob va moliyaviy hisob. Savdo balansi va valyuta kurslarining iqtisodiy muvozanatga ta'siri.

**2-Mavzu. Iste'mol narxlari indeksi**

Iste'mol savatchasi. Iste'mol savatchasini shakllanishi. Iste'mol narxlar. Narxlarning oshishi. Narxlarning tushishi. Tovar bahosining o'zgarishi. Iste'mol jamg'armalari.

**3-Mavzu. Umumiy muvozanat va pul tizimi**

Pul-kredit siyosatining ochiq iqtisodiyotdagi ahamiyati, markaziy bankning foiz stavkalari, valyuta intervensiyalari va likvidlik ta'minoti orqali iqtisodiy faoliyatga ta'siri tahlil qilinadi.

**4-Mavzu. Inflyatsiya va markaziy bankning roli**

Ushbu mavzu narxlar darajasining qanday shakllanishini va xalqaro bozor ta'sirida qanday omillar narxga ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Inflyatsiya, import narxlari, ichki ishlab chiqarish xarajatlari hamda valyuta kurslarining narxlarga ta'siri nazariy modellar asosida tahlil qilinadi.

**5-Mavzu. Strukturaviy va davriy ishsizlik**

Talabalar joriy hisob (savdo balansi, xizmatlar, daromad va transfertlar) va kapital hisob (kapital harakatlari va moliyaviy oqimlar) strukturasini o'rganadilar. Bu modellar mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va investitsiyaviy oqimlari asosida iqtisodiy muvozanatni tahlil qilishga yordam beradi.

**6-Mavzu. Ochiq iqtisodiyot**

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va investitsiyaviy oqimlari, shuningdek, tashqi savdo siyosati asosida iqtisodiy muvozanatni tahlil. To'lov balansi, savdo balansi.

**7-Mavzu. Elastikliklar, iste'mol modeli va xarid qobiliyati pariteti**

Elastiklik yondashuvi, iste'mol (absorbsiya) modeli va xarid qobiliyati pariteti (PPP) orqali valyuta kurslarining muvozanatini o'rganadilar. Bu nazariyalar yordamida real va nominal valyuta kurslarining uzoq muddatli harakati tahlil qilinadi.

**8-Mavzu. Kapital to'planishi va o'sishi modeli**

Kapital harakati, moliyaviy aktivlar tanlovi va valyuta kurslarining o'zaro bog'liqligi. Portfel yondashuvi, kapital oqimlarining valyuta bozori bilan bog'liqligi.

**9-Mavzu. Qisqa muddatda biznes sikllari va iqtisodiyot**

Mundell-Fleming modeli ochiq iqtisodiyotda qisqa muddatli pul va fiskal siyosatning samaradorligini ko'rsatadi. Mavzuda IS-LM modelining xalqaro versiyasi orqali valyuta kursi rejimlari ostida iqtisodiy siyosatning ta'siri tahlil qilinadi.

**5-Semestr**

**1-Mavzu. Qisqa muddatli tebranishlar va kelishuvlar**

Bu yondashuvga ko'ra, to'lov balansining muvozanati pul taklifi va talabiga bog'liq. Talabalar bu nazariyani qo'llab, pul-kredit siyosatining tashqi iqtisodiy barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadilar.

| | |
|---|---|
| | **2-Mavzu. Ochiq iqtisodiyot va valyuta kursi rejimlarida muvozanat**<br>Xalqaro ishlab chiqarish, savdoning ochiq iqtisodiyotdagi o'rni va ta'sirini. Savdo oqimlari, tovarlar va xizmatlar eksport-importining makroiqtisodiy muvozanatga ta'siri.<br><br>**3-Mavzu. Pul-kredit siyosati**<br>Pul-kredit siyosatining ochiq iqtisodiyotdagi ahamiyati, markaziy bankning foiz stavkalari, valyuta intervensiyalari va likvidlik ta'minoti orqali iqtisodiy faoliyatga ta'siri tahlil qilinadi.<br><br>**4-Mavzu. Davlat soliq siyosati**<br>Byudjet siyosatining tashqi iqtisodiyot bilan bog'liqligi, davlat xarajatlari va soliqlarning savdo balansiga, agregat talabga va valyuta kursiga ta'siri tushuntiriladi.<br><br>**5-Mavzu. Davlat budjet taqchilligi**<br>Byudjet siyosatining tashqi iqtisodiyot bilan bog'liqligi, davlat budjet xarajatlari va davlat budjet daromadlari savdo balansiga, agregat talabga va valyuta kursiga ta'siri tushuntiriladi.<br><br>**6-Mavzu. Moliyaviy barqarorlik**<br>Pul-kredit siyosatining ochiq iqtisodiyotdagi ahamiyati, markaziy bankning foiz stavkalari, valyuta intervensiyalari va likvidlik ta'minoti orqali iqtisodiy faoliyatga ta'siri tahlil qilinadi.<br><br>**7-Mavzu. Moliyaviy inqirozlar**<br>Moliyaviy inqirozlar sabablari, bosqichlari va oqibatlari haqida ma'lumot beriladi. Mavzu davomida spekulyativ hujumlar, zaxiralar kamayishi, valyuta siyosatidagi xatoliklar va investorlar ishonchi kabi omillar yoritiladi.<br><br>**8-Mavzu. To'lov balansining cheklovlari va kapital harakati**<br>Mamlakatning tashqi savdosi va kapital harakati qanday qilib iqtisodiy o'sishga cheklovlar qo'yishini ko'rsatuvchi model va real misollar bilan o'rganiladi. Thirlwall modeli asosida to'lov balansining iqtisodiy o'sishdagi roli yoritiladi.<br><br>**9-Mavzu. Valyuta kurslari va iqtisodiy o'sish: qisqaruvchi va kengaytiruvchi ta'sirlar**<br>Devalvatsiya va revalvatsiyaning real iqtisodiyotga ta'siri – ya'ni, ishlab |

chiqarish, eksport-import, inflyatsiya va investitsiyalar orqali qanday kontraktsion (qisqaruvchi) yoki ekspansion (kengaytiruvchi) ta'sirlar bo'lishi mumkinligi tahlil qilinadi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Milliy daromad hisoboti
2. Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish omillari
3. Umumiy muvozanat
4. Pul tizimi
5. Inflyatsiya
6. Ishsizlik
7. Ochiq iqtisodiyot
8. Iqtisodiy sikllar
9. Monetar va fiskal siyosat dizayni va samaradorligi
10. Byudjet taqchilligi va davlat qarzi
11. Ochiq iqtisodiyotdagi qisqa muddatli o'zgarishlar

**VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yunalish deb yondashiladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ekanligini taxlil etar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizasiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslanadi.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1 Zamonaviy bozor iqtisodiyoti muammolarini yechis "Makroiqtisodiyot" fanining ahamiyati

2 Milliy daromad hisoboti

| | |
|---|---|
| | 3 Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish omillari<br>4 Umumiy muvozanat<br>5 Pul tizimi<br>6 Inflyatsiya<br>7 Ishsizlik<br>8 Ochiq iqtisodiyot<br>9 Iqtisodiy sikllar<br>10 Monetar va fiskal siyosat dizayni va samaradorligi<br>11 Byudjet taqchilligi va davlat qarzi<br>12 Ochiq iqtisodiyotdagi qisqa muddatli o'zgarishlar |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).**<br><br>**"Makroiqtisodiyot" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:**<br>- makroiqtisodiyot fanining predmetini, ob'ekti hamda makroiqtisodiy agentlar<br>- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari<br>- asosiy makroiqtisodiy modellar va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirish<br>- ***haqida tasavvurga ega bo'lishi***;<br>- byudjet-soliq va pul – kredit siyosatining maqsadlari, vositalari, ko'rinishlari<br>- pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillar ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;<br>valyuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>* ma'ruzalar;<br>* interfaol keys-stadilar;<br>* semnarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>* guruhlarda ishlash;<br>* individual loyihalar;<br>* taqdimotlar qilish. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar** |

| | |
|---|---|
| | 1. Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma.- T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2018. - 300 bet.<br>2. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 9 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2016.<br>3. Abel A.B., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013b.<br>4. Мирополского Д.Ю., Бродский Т.Г., Макроэкономика. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2018. – 368 с..<br>5. Носова С. Микроэкономика. Макроэкономика. Учеб.пособие – М.: Кнорус, 2014, – 468 с..<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2018.– 76 b.<br>2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi gazetasi, 2019 yil 21 iyun..<br>3 Axmedov D.Q., Ishmuxamedov A.E., Jumaev Q.X., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: «O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti», 2004. -240 bet..<br>4. Марыганова Э.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс курс.: учебное пособие- М.: КПОРУС, 2010.-302 с.<br>**Axborot manbaalari**<br>www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.<br>www.ved.ru<br>www.uza.uz<br>www.Lex.uz<br>www.ziyonet.uz |
| 7. | O‘quv dasturi universitet Kengashining 2025-yil 29 04 8/9/15-/750 sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sullar:**<br>N.R.Odinayev - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, “AKT sohasida iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>D. X. Xudaynazarova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “AKT sohasida iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b.<br>Z.A. Shamansurova - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi professori. |